

XAYRIDDIN SULTONNING XARAKTER YARATISH MAHORATI

Go'zaloy MATYOQUBOVA*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xayriddin Sulton hikoyalarida inson ruhiyati tasviri tahlil qilinadi. Adib asarlarida inson ichki dunyosining murakkab qirralari, ruhiy kechinmalari va psixologik holati yorqin aks ettirilgan. Muallif o'z qahramonlarini chuqur tahlil qilib, ularning hayotiy tajribasi, tashqi voqealar va ichki kurashlarining o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Hikoyalarda insonning yolg'izligi, ijtimoiy muammolar bilan to'qnashuvi, orzu va haqiqat o'rtasidagi ziddiyat kabi mavzular o'ziga xos badiiy uslubda yoritilgan. Adib timsollar va ramzlar orqali inson ruhiyatining nozik jihatlarini ochib beradi. Ushbu maqolada Xayriddin Sulton hikoyalaridagi psixologik tasvir vositalari, badiiy-estetik xususiyatlari va ularning o'quvchiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuvchi asarlarida inson ruhiyati teran tasvirlanib, o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi.

Kalit So'zlar: *Xayriddin Sulton, Hikoya, Inson Ruhiyati, Psixologik Tahlil, Badiiy Uslub.*

The Illustration of the Human Spirit in the Stories of Khayriddin Sultan

Annotation: This article analyzes the depiction of the human psyche in the stories of Khayriddin Sultan. The writer's works vividly reflect the complex aspects of the inner world of man, his spiritual experiences and psychological state. The author deeply analyzes his characters and shows the interrelationship of their life experience, external events and internal struggles. The stories cover topics such as human loneliness, conflict with social problems, and the conflict between dreams and reality in a unique artistic style. The writer reveals the subtleties of the human psyche through metaphors and symbols. This article studies the means of psychological imagery, artistic and aesthetic features and their impact on the reader in the stories of Khayriddin Sultan. The results of the research show that the writer's works deeply depict the human psyche, encouraging the reader to make deep observations.

Keywords: *Khayriddin Sultan, Story, Human Psyche, Psychological Analysis, Artistic Style.*

Kirish

Tashqi omil va ta'sirlarning ijodkor asarlarida qanday va qaysi jihatdan aks etishi uning shaxsiga bog'liq. Agar adib davr hodisalari yaratgan tuyg'ularni umuminsoniy falsafiy qarashlar bilan uyg'un tarzda asariga qiyoslay olsa, uning ijodi davrlar osha yashab qoladi. Aks holda, agar kechinmalar davr doirasidan chiqib keta olmasa, ular davr kabi o'tkinchi bo'lib qoladi. Inson uchun kechinmalar muhimroq, chunki ularni yuzaga keltirgan sabablar va natijalar tez unutilishi mumkin, ammo o'sha paytda his qilingan betakror tuyg'ular bir umrga qoladi. Inson kechinmalari, uning kimligi, yashagan davri, millati yoki e'tiqodidan qat'i nazar, o'zgarmasdir. Axir, quvonch va qayg'u, qo'rquv va hayajon, muhabbat va nafrat, burch va mas'uliyat kabi tuyg'ular insoniyat tarixining har bir davrida o'zgarmagan holda mavjud bo'lgan va o'zining ibtidoiy shaklida qolgan. Faqat ularning kelib chiqish manbalari va namoyon bo'lish shakllari har safar turlicha bo'ladi. Xayriddin Sulton hikoyalarida inson ruhiyati tasviri, insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va psixologik holati chuqur yoritilgan. Adib o'zining o'ziga xos badiiy uslubi va qahramonlarning psixologik holatlari bilan ajralib turadi, bu esa uning asarlarini o'rganishni dolzarbligini oshiradi.

Xayriddin Sulton o'z asarlarida inson ruhiyatining murakkabligini badiiy tasvirlash orqali o'quvchilarga chuqur fikrlash va his qilish imkonini beradi. Uning hikoyalari ko'pincha qahramonlarning ichki kurashlari, ijtimoiy muammolar va hayotning murakkabligi haqida hikoya qiladi.

Maqolada Xayriddin Sulton asarlaridagi qahramonlar, ularning ichki izlanishlari, ruhiy kurashlari va psixologik holatlari tahlil qilinadi. Jamiyatning ijtimoiy muammolari, orzu va haqiqat o'rtasidagi ziddiyatlar ko'rib chiqiladi. Masalan, qahramonlar ko'pincha o'z orzulari va haqiqat o'rtasida kurashadilar, bu esa ularning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Adib bu ziddiyatlarni chuqur va nozik tasvirlaydi, bu esa o'quvchini qahramonlarning ichki dunyosiga yaqinlashtiradi.

* O'zbekiston Davlat Drama Teatri Adabiy Bo'lim Boshlig'i, e-mail: guzal.s1984@gmail.com

Xayriddin Sulton ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotida muhim o'rin tutadi. Uning asarlaridagi psixologik tasvirlar, falsafiy izlanishlar va tabiiy tasvirlar o'quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Ushbu tadqiqot, Xayriddin Sulton ijodini o'rganish orqali, o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, adabiyotshunoslikda inson ruhiyatini o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Adabiyotlar Tahlili va Metodologiya

Xayriddin Sulton hikoyalarda inson ruhiyatining tasvirini tahlil qilish, qahramonlarning ichki kurashlari va psixologik holatlarini aniqlash, hikoyalarda aks etgan ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqish va adibning badiiy uslubini hamda tasvir vositalarini o'rganish. Tadqiqotda asosan analitik va komparativ metodlardan foydalaniladi. Hikoyalar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilinadi, shuningdek, psixologik tahlil usullari qo'llaniladi. Bu metodlar yordamida Xayriddin Sulton ijodidagi qahramonlarning ruhiy holatlari va ularning ichki kurashlarini chuqurroq o'rganish imkoniyati yaratiladi.

Xayriddin Sulton ijodi bo'yicha adabiyotlar tahlili, uning badiiy uslubi va qahramonlarining ruhiy holatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Sulton ijodiga oid bir qator tadqiqotlar va maqolalar mavjud bo'lib, ular adibning san'atini va uning asarlaridagi psixologik tasvirlarni yoritishga qaratilgan. Ushbu tahlil orqali adib ijodining o'ziga xos jihatlari va uning adabiyotdagi o'rni aniqlanadi.

Adabiyot nazariyasi bo'yicha bir qator asarlar mavjud bo'lib, ular adabiyotning turli nazariy jihatlarini, jumladan, psixologik tahlil, badiiy uslub va obrazlar haqida ma'lumotlar beradi. Bu asarlar adib ijodini tushunishda muhim manba hisoblanadi. Jon Golsuorsi tomonidan yozilgan asarda olti adibning qiyofasi va ularning asarlaridagi psixologik jihatlar tahlil qilinadi. Golsuorsi Sulton ijodini ham o'z ichiga olgan holda, adibning badiiy tasvirlari va inson ruhiyati haqida fikrlar bildiradi.

Quronov, Mamajonov va Sheraliyev tomonidan tayyorlangan adabiyotshunoslik lug'ati adabiyotshunoslikka oid terminlar va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bu lug'at Sulton ijodini o'rganish uchun zarur bo'lgan terminlar va tushunchalar bilan tanishishga yordam beradi. Xayriddin Sulton "Odamlardan tinglab hikoya" turkumida o'z qahramonlarining ruhiy holatini chuqur tasvirlaydi, bu asar adibning psixologik tasvirlaridagi ustunligini ko'rsatadi. "Navoiy – 30" asarida esa Sulton ijodining falsafiy va badiiy jihatlari tahlil qilinadi, bu asar orqali adibning inson ruhiyatiga oid fikrlari va tasvirlari yanada chuqurroq o'rganiladi.

Shuningdek, "Ishonch telefoni" qissasida yozuvchi qahramonlarining ichki kurashlari va ruhiy holatlari haqida ma'lumot beradi. Ushbu asar adibning zamonaviy muammolarni qanday yoritishi haqida fikr yuritadi. "Bir oqshom ertagi" kitobi orqali Xayriddin Sulton inson ruhiyatining murakkabligini va uning ichki kechinmalarini badiiy uslubda ifodalaydi. Bu asar adibning ijodiy uslubi va qahramonlarining psixologik holatini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Xayriddin Sulton hikoyalari, shuningdek, o'zbek adabiyotining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. U o'z asarlarida zamonaviy hayotning murakkabliklarini, ijtimoiy adolatsizliklarni va insonning ichki kurashlarini badiiy tasvirlash orqali o'quvchilarda chuqur his-tuyg'ularni uyg'otadi. Adibning hikoyalarda aks ettirilgan ijtimoiy muammolar va ularning qahramonlar tomonidan qabul qilinishi, o'quvchilarga hayotning murakkabligini yanada yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Xayriddin Sulton hikoyalaridagi inson ruhiyati tasvirlari, o'zbek adabiyotining boy tarixi va madaniyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Adib o'z asarlarida insonning ichki dunyosini, uning his-tuyg'ularini va ruhiy holatini badiiy uslubda ifodalash orqali o'quvchilarga hayotning murakkabligini va go'zalligini ko'rsatadi. Shunday qilib, Xayriddin Sulton ijodi nafaqat badiiy adabiyotda, balki inson psixologiyasini o'rganishda ham muhim.

Natija va Tahlil

O'tgan asrning 70-yillar o'rtalarida adabiyotga kirib kelgan Xayriddin Sulton o'zining hikoyachiligi orqali bu maydonda alohida o'rin egalladi. Uning asarlari nafaqat o'quvchilarni badiiy dunyoga tortib boradigan, balki ularni chuqur falsafiy fikrlar bilan ham boyitadigan asarlar sifatida keng tanilgan. Xayriddin Sultonning hikoyachiligi o'ziga xos bo'lib, u insoniyatning asosiy ma'naviy va psixologik muammolarini keng miqyosda tasvirlaydi.

Xayriddin Sulton hikoyalardagi qahramonlar, ularning ichki izlanishlari, ruhiy kurashlari va psixologik holatlari yozuvchi badiiy mahoratining asosi hisoblanadi. Yozuvchi o'z asarlarini yaratishda qahramonlarning ruhiy dunyosini chuqur va to'liq tasvirlashga intiladi. Ularning ichki qarama-qarshiliklarini, o'z-o'zini anglashdagi qiyinchiliklarini, nafaqat tashqi voqealar, balki qahramonlarning his-tuyg'ulari va dunyoqarashlari orqali o'rganadi. Xayriddin Sulton asarlarida qahramonlarning ichki dunyosida yuz berayotgan jarayonlar va ularning tashqi hayotidagi voqealar o'rtasidagi bog'lanish juda muhim o'rin tutadi.

Yozuvchining asarlarida muallifning imzosi sezilib turadi. Xoh hikoya, xoh roman bo'lsin, qo'llangan so'zlar, qahramonlarning tasvirlari va voqealar intihosi muallifni o'ziga xos tarzda oshkor qiladi.

Zotan, adibga olam qanday ko'rinsa, shunday tasvirlash xosdir. Uning aksariyat asarlari kitobxon kutganidek, yaxshilik bilan tugamaydi. Xayriddin Sultonning so'ngi yillarda yozilgan hikoyalarda bosh qahramon noxush vaziyatga tushib, o'sha vaziyatning qurboniga aylanadi. Masalan, yozuvchining ayrim asarlarida bugungi kundagi ma'naviy illatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. U asosan o'z tirikchiligi bilan ovora bo'lgan, pul topish orzusida yashayotgan, atrofidagilarga beparvo bo'lgan insonlarni tasvirlaydi. Hikoyalar bir qarashda boshdan-oyoq yengil va sarguzashtnamo ruhda yozilgandek taassurot uyg'otsada, aslida chuqur tahlildan keyin ularda bugungi kun insonining fojeaviy holatlari bo'rtib ko'zga tashlanadi.

Xayriddin Sulton ko'pincha qahramonlar xarakterini yaratish va psixologik holatini ochishni to'la hikoyachi ixtiyoriga tashlaydi. O'zi voqealar rivojiga aralashmay, badiiy mantiqqa zug'um qilmay, borni boricha tasvirlashga intiladi. U asosiy e'tiborni hikoyachi nutqi orqali qahramonlar ruhiy holatini qanday ifodalashga qaratadi. Portretlar yaratishda va ularda ruhiy holat namoyishida yozuvchi real tasvirdan, haqqoniy bo'yoqlardan foydalanadi.

Bunday ifoda usuli ijodkorning o'z fikr-tuyg'ularini boshqalarga yetkazish va ularni o'zi tuyganidek his-tuyg'ularni yaratishga imkon beradi. Bu asl adabiyotning vazifasidir. Yozuvchi til, so'zlar va ularning tartibidan unumli foydalanib, o'quvchini fikrlarini bir-biriga anglatish quroli sifatida ishlatadi. Aynan shu usul orqali Xayriddin Sulton asarlaridagi qahramonlarga o'quvchilar ham xuddi yozuvchining o'zi kabi munosabatda bo'lishi mumkin.

Yozuvchi badiiy niyatini amalga oshirish uchun tanlagan yo'l uning uslubi hisoblanadi. Masalan, oshni birov qo'lda, birov qoshiqda, birov esa issiq yoki sovuq yeydi. Shunday qilib, Xayriddin Sulton ifoda uslubida shafqatsizlik aralash o'ta haqqoniy tasvirni yetakchi qilib olgan. Albatta, adibning barcha asarlari "Ishonch telefoni" va "Odamlardan tinglab hikoyalar" turkumlari kabi to'la shu uslubda bitilmagan. Ammo har bir asarda, hech bo'lmaganda bir qahramon yoki biror badiiy lavha real hayotning o'zi kabi shafqatsiz tusda tasvirlangan.

So'nggi yillarda milliy, diniy qadriyatlar, uzoq taraqqiyot davrida ajdodlardan o'tib kelgan qator tushuncha va qarashlar yangicha shaklda jonlana boshlandi. Shu tariqa badiiy asarlarda ham inson obrazi mustaqillik yillarida yangicha konseptual nuqtai nazardan aks ettirila boshlandi. Zero, "hayotning kelib chiqishi va tugab bitishi sabablari, hatto odamlar hayotining chiqib kelish sabablari ham teran bir sirga chulg'angan. Shu sirni tan olish, e'tirof etish borliqqa muayyan ulug'vorlik baxsh etadi" (Golsuarsi, 2004: 4). Demak, zamonaviy o'zbek adabiyotida hikoyaning badiiy aks ettirilishi avvalgi davrdagilardan farq qiladi.

Xayriddin Sultonning “Anonim” hikoyasi syujet-kompozitsion qurilishi, obrazdagi biroz g‘ayritabiiylik qahramon haqidagi qarashlar tizimi o‘zgarganiga yaqqol misol bo‘la oladi (Sulton, 2023: 65). Asar boshidayoq voqea muallif tilidan hikoya qilinadi. Hikoya muallifining shaxsi noaniq. “Men” timsolida ko‘pchilik o‘qirmanlar odatlangan odam emas, tamomila o‘ziga xos shaxs qiyofasini shakllantirishga harakat qilingan: “Kech bo‘lishidan, kechasidan qo‘rqaman. Keyingi paytlarda rahmatli Topil tez-tez ko‘zimga ko‘rinadigan bo‘lib qoldi. Egnida sariq kurtka, oyog‘ida jigarrang tufli, boshyalang, sochlari jingalak... ko‘zlarini katta ochib, tikilib turaveradi, turaveradi. Bola-chaqam ahvolimni tushunmaydi, uyqumni yo‘qotib, ozib-to‘zib ketganimni ko‘rib, nuqul doktorga sudraydi” (Sulton, 2023: 65).

Xayriddin Sulton hikoyalarining jozibador tili va uslubi, xalq maqollariga boy bitiklari hayot sirlaridan saboq beradi. Uning hikoyalari pishiq va puxtaligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining so‘nggi yillarda yozilgan “Millatchining jazosi” (Sulton, 2020, 37) hikoyasida butun millat dardiga aylangan ma‘naviy fojia ta‘sirli yoritib berilgan. Shu sababdan ham “Millatchining jazosi” nomi berilgan. “Hurriyat bo‘lib, kommunistlar demokratlarga, ateistlar dindorlarga aylangan, milliy o‘zlikni anglash siyosat darajasiga ko‘tarilgan dorilomon kunlar” bir ilmiy xodim - Jamolitdin Buzrukov fuqarolik pasportidagi imloviy xatoni tuzatib, qanday balolarga giriftor bo‘lgani g‘oyatda qiziqarli tasvirlangan. Hikoyaga Asqad Muxtorning: “Ismimdagi bir harfning qurboniman”, degan so‘zlari epigram qilib olingan. Shu birgina jumla zahirida qanchadan-qancha ma‘no mujassam. Bilamizki, sobiq mustabid tuzum davrida ko‘pgina millatdoshlarimizning ism-familiyalari bilib-bilmasdan xato yozilgani dilimizni xufton qiladi. Xuddi shunday “d” harfini o‘rniga “t” harfi xato yozilgan Jamolitdin Buzrukov ham podpolkovnik Nazimov B.Y ga pasportdagi ismini to‘g‘rilab yozib berishini talab qiladi. Ammo buning iloji yo‘q, yoki bo‘lmasam ancha mashaqqat talab etilardi. Hikoyada ushbu holat quyidagicha keltirilgan:

“ – Ha, bu metrikani...bundan ellik yil burun bir chalasavod tatar kampir yozib bergan-da. – Bizga buning daxli yo‘q, – dedi podpolkovnik Nazimov B.Y. – Agar metrikani o‘zgartirib kelsangiz, xohlaganingizdek qilib, ikkita “d” bilan, kerak bo‘lsa uchta “d” bilan ham yozib berishimiz mumkin. – Uchta “d” kerak emas, – dedim tumshayib, – bu... metrikani qayerda, qanday o‘zgartiraman? – Berilgan joyida, dedi u, – qaysi rayondan olgan bo‘lsangiz, o‘sha yerning ZAGSiga yozma murojaat qilasiz. ZAGS arxivga zapros beradi, arxiv roddomdan olingan spravka asosida spravka beradi, ZAGS shu spravka asosida sizga ikkita “d” bilan yangi metrika beradi, shu metrika asosida biz sizga yangi pasport beramiz. Shu.” Nazimovning so‘zlaridan shuni anglashimiz mumkinki, metrikani o‘zgartirishning imkoni yo‘q. Milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ulari jo‘sh urib turgan Jamolitdinni esa g‘am bosdi: “Men bu holatni shu ahvolda qoldirmayman, yetar shuncha yil chidaganimiz! Men.. milliy o‘zligimni tiklashingizni talab qilaman!” (Sulton, 2020: 40).

Bu da‘vatkor so‘zlar hikoyaning ta‘sirchanligini, emotsionalligini oshirgan. Pafosini belgilab bergan. “Pafos – oddiy hayotda biror kishi o‘z fikrini chuqur e‘tiqod bilan “yonib-kuyib” ifodalasa, uni “pafos bilan so‘zlayotir” deyдилar. Adabiyotshunoslik va san‘atshunoslikda ham “pafos” so‘zi ancha keng va chuqur ma‘noda ishlatiladi. Pafos, g‘oya bilan bog‘liq bo‘lgan hisni, biror g‘oyaga maftunlik natijasida ijodkorda paydo bo‘lgan qattiq hayajonni, ko‘tarinki ruhni bildiradi (Fitrat, 2009: 17)”. Yozuvchi hikoyada qahramonlar xarakterini ochib berish bilan birgalikda g‘oyaviy mazmunni boshqaradi. G‘oyaviy mazmunning talabiga uyg‘un holda, hayot ziddiyatlarini umumlashtiradi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi milliy o‘zlikni tiklash barobarida pasportdagi ismni to‘g‘rilash kerakmi yoki bunga ko‘z yumish... Hikoya qahramoni ismini to‘g‘rilashga erishadi ammo bu unga qimmatga tushishi mumkin. Ya‘ni o‘z uyi, xotini, bolalari, mol-mulki, diplomlari, butun borlig‘idan judo bo‘lishi muqarrar. O‘ttizdan ortiq hujjatlarda o‘z ismini to‘g‘rilab chiqishdan ko‘ra xato yozilgan bo‘lsada, o‘sha “Jamolitdin” holiga qaytishdan o‘zga chora topolmaydi. Yangi pasportida ismini to‘g‘rilab bergan podpolkovnik Nazimov B.Y. huzuriga qaytadan bosh urib

borgan millatparvar Jamolitdin xijolat botqog'idan qutulish uchun keltirgan maqollariga kulishimizni ham, xafa bo'lishimizni ham bilmaymiz. "Podpolkovnik Nazimov B.Y.ga yuzlanib dedimki, hammamiz ham xom sut emgan bandamiz, jahl kelganda aql ketar, egilgan boshni qilich kesmas, bir ko'rgan tanish, ikki ko'rgan bilish, deydilar, endi, shu bir qoshiq qonimizdan kechib, mushkulimizni hal qilib bersangiz, iloyo, tuproq olsangiz oltin bo'lsin, martabangiz bundan ham ziyoda bo'lsin..." Bunday maqollar qo'llanilishi yozuvchining mahoratidan dalolat beradi hamda hikoyaning o'qishlilikini oshiradi. Keltirilgan ushbu hikoyadan shunday xulosa chiqarish mumkin: yozuvchi doimo hayotdan, hayotdagi fakt va hodisalardan turtki oladi. Adabiyot hayotning in'ikosidir. Yozuvchi to'g'ridan-to'g'ri hayotni tasvirlamaydi, balki muayyan g'oyaviy-badiiy maqsad asosida hayotni qayta yaratadi ekan, xuddi ana shu maqsadning bir butunligini, maftunkorligini ta'minlash uchun o'zida (xotirasida, qalbida, zehnda, tajribasida) borini qo'shadi. Eng asosiysi, hayotga haqiqatan o'xshash qilib, bo'lishi mumkin bo'lgan olamni yaratadi. Xayriddin Sulton hikoyalarida insonning tirikligi, hayoti va bu dunyoga kelishdan maqsad ne ekanligini anglash inson uchun g'oyat muhim vazifa ekanligini uqtiradi.

Xayriddin Sultonning o'tgan asrning 80-yillarida yozilgan "Dunyoning siri" hikoyasida yuqoridagi hikoyadan farqli o'laroq inson ruhiyatining turli qirralari, psixologik holatlari va ichki kurashlari juda chuqur va ta'sirlili yoritilgan. Hikoyadagi asosiy qahramonlar – Qunduz va Muzaffar – ikki turli odam, biri tinch, ozoda va bir oz g'amgin, boshqasi esa kurashayotgan, hayotdan baxt izlayotgan, lekin ruhiy jihatdan ancha iztirobda bo'lgan inson.

1. Muzaffarning Ruhiy Holati

Muzaffar hikoyaning boshidan oxirigacha ruhiy noqulayliklarni boshdan kechirayotgan bir inson sifatida tasvirlanadi. U ziqnafas bilan og'rgan, bundan tashqari, salbiy his-tuyg'ular va hayotdagi qiyinchiliklar tufayli ichki bosqichlik va umidsizlikni his qilayotgan ko'rinadi. Uning hazillashib aytgan "Yer yuzida to'rt milliard odamga yetgan havo menga yetmaydi (Sultonov, 1983: 4)", degan so'zlari uning ichki keskin qarama-qarshiliklarini, o'zi bilan o'tkazayotgan ruhiy kurashni tasvirlaydi.

Bu so'zda uning hayotiga qarshi o'ziga xos bir "nafrat" mavjud: u nafaqat kasallikdan, balki hayotning o'zi haqidagi noaniqliklardan ham azob chekadi. Bunday ruhiy holat insonga o'zini yagona, qolganlaridan ajralib turgan, qo'llab-quvvatlashga muhtoj his qilishiga olib keladi.

2. Qunduzning Ruhiy Holati

Qunduz esa Muzaffarning holatiga qarshi bir nisbatan tinch va muvozanatlangan shaklda turadi. U Muzaffarni tushunishga intiladi, lekin uning ruhiy holatiga to'liq kirib borolmaydi. Uning so'zlari va muomalalari yordamida Qunduzning fikrlari, hatto badiiy javoblari ham, uning psixologik jihatdan yanada barqaror va tashabbuskorligini ko'rsatadi. Lekin, bir paytlar Muzaffar bilan o'tkazgan suhbatlardan keyin, Qunduz o'zining ichki zerikishi va bo'shlig'ini anglab yetadi. U o'zini g'arib, yolg'iz sezadi, bu esa uning ruhiy holatining shunchaki jismoniy holatdan ko'ra ko'proq ichki va ma'naviy bo'lishini anglatadi.

3. Ruhiy Konfliktlar va Izlanishlar

Muzaffarning "dunyoda olimlar kam (Sultonov, 1983: 7)", deb aytishi uning chuqur izlanishlarni amalga oshirish istagini va hayotdagi haqiqiy maqsadga erishish uchun kurashayotganini ko'rsatadi. U o'zining ruhiy holatiga qarshi kurashish niyatida, ammo bu kurashda unga yordam beradigan hech narsa yo'q. Bu daqiqalarda u mutlaq haqiqatni izlashga urinadi, lekin bu izlanishlar uni o'zining haqiqiy ehtiyojlarini va ichki bo'shliqlarini ko'proq ochadi.

Qunduz esa, o'zining o'tkazgan hayoti, o'rgangan bilimlari orqali, o'zida qandaydir tutilganlikni his qiladi. U o'zi niyat qilgan kasbga erishishda to'xtab qoladi va shu tariqa unga

boshqa bir yo'lni tanlash zarurati keladi. Bu o'zining asosiy hayotiy maqsadini topishdagi qiyinchilikni aks ettiradi.

4. Inson va Tabiat O'rtasidagi Aloqalar

Hikoyaning oxirida, Muzaffar tog'da yurganida, u o'zining nafas qisishidan va hayotga nisbatan bo'lgan o'ksikligidan ba'zi jihatdan qochish istagini bildiradi. Tog'ga chiqa olmasligi uning ichki holati bilan bog'liq: u tashqi olam bilan to'qnashuvda, lekin ichki holatini o'zgartirishga hali tayyor emas. Shunday qilib, tabiat va insonning ruhiy holati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rsatiladi.

5. Faylasuflarning Tasvirlanishi

Qunduzning "Sharipovmi, Sharopovmi (Sultonov, 1983: 7)", deb so'rashi uning o'zi hayotidagi haqiqiy bilimlarga erishish va chuqur falsafiy savollarni hal qilishdagi qiziqishini ko'rsatadi. Lekin bu savollar unga o'zingni anglashdan ko'ra, uning ruhiy holatiga ziddiyatli tuyg'ularni keltiradi. U hech qachon o'zini to'liq anglamaydi, bu esa uning hayotga nisbatan bo'lgan izlanishlarini kuchaytiradi.

"Voqelikning ijodkor ongida qay tarzda akslanishi uning dunyoqarashiga bog'liq" (Quronov, 2010: 387). Demak, yozuvchi anglagan va ilgari surgan g'oya, u yashagan davr, borliqni idrok etish, tushunish va izohlash jarayoni kechgan jamiyatga ham ko'p darajada bog'liq. Bu esa yuqoridagi hikoyada tasvirlangan voqelikka aynan o'xshash bo'lmasada, yaqin hodisa qaysidir davrdagi boshqa g'oya va mavzularni eslatadi. Shu o'rinda aytish kerakki, mazkur hikoya va unda ilgari surilgan g'oya, muammo, mavzular o'tgan asrning 70-80-yillaridagi boshqa hikoyalarda ham uchrashi mumkin. Biroq ulardagi obraz va uning zimmasidagi badiiy-estetik yuk Xayriddin Sulton bitigidan jiddiy farq qilgan bo'lardi.

Ko'rinadiki, Muzaffar obrazi butunlay yangicha qismatdagi shaxs sifatida gavdalangan. Ana shu yerda muallifning qahramon yaratishga doir qarashlari ochila boradi. U xalq afsona, epos, miflarida yashab kelgan bashariy aql bilan izohlash mushkul g'ayrushuriy hodisani bugungi qarashlari asosida aks ettirgan. Bunda hikoyadagi obraz zimmasiga o'ziga xos yangi badiiy yuk ortilgan. Hikoyada hayotdagi ayrim narsa-hodisalar ilohiy qonuniyat asosida, muayyan bir muvozanatda yuz berishi tasvirlangan. Shuningdek, odamning bir umr orzulab intilgan, umrining mazmuni deb bilgan ideali o'lim farishtasi qiyofasida namoyon bo'lishi mumkinligi, hayotning sirli va izohlash mushkul jihatlarini borligi shu tariqa ko'rsatilgan.

Mazkur hikoyada qahramonlarning ruhiy dunyosini teran tasvirlash orqali muallifning badiiy mahorati namoyon etilgan. Hayot kishini sevishga, iztirob chekishga, hayot ma'nosini izlashga, o'zini kimgadir kerak bo'lishi va avlod qoldirishini baxt deb bilishga o'rgatdi. Bularning hammasi birgalikda inson ehtiyojlarining umumiy fonini tashkil etadi. Shu kechinma, hodisa, voqealar qurshovida insonning ulug'vorligi va buyukligi ko'rinadi. Unda insonning olam bilan yaxlitligi, olam nuqsonli bo'lganda, odam ham nuqsonli, olam benuqson bo'lsa, odam ham benuqson bo'ladi, degan yagona tamoyil aks etgan.

Xayriddin Sulton ijodining yetakchi xususiyatini belgilovchi yana bir jihat, uning hikoyalarida qahramonga xos xususiyatlar personajlar ichki olamini aniqlashtiruvchi, uni haqiqat sari undovchi, chorlovchi ichki dinamikasi borligidadir. Xarakter yaratish barcha ijodkorlar uchun umumiylik kasb etadi. Xarakter turmush sharoitlariga muvofiq tasvir, ijtimoiy va tarixiy jarayonlar orqali aniqlanadi.

"*Dunyoning siri*" hikoyasida Muzaffar va Qunduzning suhbatlari, ularning har birining ichki muammolari, fikrlarining o'zaro ziddiyatlari orqali inson ruhiyatining qatlamlari ochiladi. Muzaffar o'zining kasalligi haqida gapirganda, uning so'zlarida nozik bir nadomat, bexosdan oshkor bo'layotgan ichki iztiroblar va hayotdan norozi bo'lishi seziladi. Ushbu tasvirlar orqali yozuvchi o'z qahramonining ruhiy holatini nafaqat so'zlar bilan, balki uning aytganlarini o'qigan o'quvchi ham sezishi mumkin bo'lgan tarzda yetkazadi.

Xayriddin Sulton o'z asarlarida tabiatni ko'proq metaforik vosita sifatida ishlatadi. Tabiat faqat biror muhit yoki fon sifatida emas, balki qahramonlarning ichki holatini aks ettiruvchi, ularning ruhiy muammolarini ko'rsatadigan vosita sifatida xizmat qiladi. Xayriddin Sulton tabiatning har bir holatini – yomg'ir, quyosh nuridan behabar bo'lgan kunlar, quruq havoda uzilgan yashil o'tlar – qahramonlarning ruhiy holati bilan bog'laydi. Tabiat, ayniqsa, personajlarning izlanishlari, tushkunligi yoki ularga nisbatan tasvirlanadigan o'zaro aloqalar orqali o'z ma'nosini topadi.

“*Dunyoning siri*” hikoyasida Muzaffarning tog'dagi izlanishlari orqali uning ichki dunyosidagi o'ksiklik va beqarorlikni ko'rish mumkin. Muzaffar nafas qisilishi va uning ruhiy holatining tabiat bilan uyg'unligi o'quvchiga tabiatning qahramon ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Ushbu voqea, tog'dagi vaziyat va havoning yomonlashuvi orqali Muzaffarning ichki siqilishini yanada kuchaytiradi. Tabiat va insonning o'rtasidagi bog'liqlik Sultonning hikoyalarida muhim rol o'ynaydi, chunki bu bog'lanish qahramonlarning hissiy holatlarini yanada chuqurroq ifodalash imkonini beradi.

Xayriddin Sulton hikoyalarida falsafiy masalalar va hayotning ma'nosi tez-tez ko'tariladi. Yozuvchi o'z asarlarida faqat tashqi voqealarni yoritish bilan cheklanmaydi, balki insoniyatning hayotdagi maqsadi, dunyoqarashi, ma'naviy qiymatlari haqida jiddiy savollarni o'rtaga tashlaydi. U o'z hikoyalarida qahramonlarning ichki qiyinchiliklarini tasvirlaydi va bu orqali o'quvchining o'zini anglash jarayoniga qatnashishini ta'minlaydi. Bu jarayon asarda nafaqat tasvir, balki falsafiy mantiq orqali ham ko'rinadi.

Masalan, “*Dunyoning siri*” hikoyasida Muzaffarning kasalligi va unga nisbatan noaniq, falsafiy javoblar uning hayotga bo'lgan qarashini ko'rsatadi. Uning o'z kasalligi haqidagi fikrlarida, “Yer yuzida to'rt milliard odamga yetgan havo minga yetmaydi”, deb aytishi, shuningdek, shifokorlarning maslahatlarini inkor qilishidagi falsafiy izlanishlar o'quvchini insonning hayotga bo'lgan qarashiga, uning mavjudlik sababi haqida o'ylashga undaydi. Shu bilan birga, Muzaffarning hayotda qiziqarli, o'zini anglashga intilishdagi noaniqligi va umidsizligi o'quvchini tabiat va inson o'rtasidagi aloqaga yanada chuqurroq kirib borishga undaydi.

Yozuvchi hikoyalarida an'anaviy syujet qurilishini kamaytiradi va uning o'rniga chuqur ma'naviy va psixologik izlanishlarni olib borishga imkon beradigan noan'anaviy usullarni qo'llaydi. Bu usul hikoyaning syujetini odatda oddiy voqealar va kurashlar bilan boshlaydi, ammo vaqt o'tgan sayin, voqealar yanada murakkablashadi, qahramonlar o'zlari va hayotga nisbatan yanada chuqurroq fikrlar va savollar bilan to'lib boradilar. Bu o'zgacha uslub hikoya tarkibiga yangi qatlamlar kiritib, o'quvchiga g'aroyib va tahlil qilishni talab qiladigan ma'nolarni taqdim etadi.

Xayriddin Sulton o'z hikoyalarida psixologik tasvirlarni juda nozik va o'quvchilarni o'ziga tortadigan tarzda yaratadi. Sulton qahramonlarning ruhiy holatlarini, ichki iztiroblarini va his-tuyg'ularini ko'rsatayotganda, ularni tashqi xatti-harakatlar, so'zlar va mimikalar orqali aks ettiradi. Hazil va jiddiylikni o'ta nozik bir uyg'unlikda qo'shib, qahramonlarning ichki kurashlarini yanada kuchaytiradi. Bu o'z navbatida, o'quvchini hikoya davomida qahramonning ruhiyatini yanada chuqurroq his qilishga yordam beradi.

Muzaffarning dardli hazili, uning kasalligi bilan bog'liq fikrlari orqali yozuvchi uning ichki iztiroblarini nozik tarzda ochib beradi. Shunday qilib, yozuvchi o'zining badiiy ifoda uslubi orqali qahramonlarning his-tuyg'ularini o'quvchiga o'ta ta'sirli va chuqur tarzda yetkazadi.

Xulosa

Xayriddin Sultonning badiiy tili aniq va ma'noli, garchi uni o'qish oson bo'lsa-da, o'quvchiga beradigan ma'no o'zgacha darajada chuqurdir. Yozuvchining ifoda uslubi juda ta'sirchan, o'ziga xos va hissiy jihatdan boy bo'lib, har bir ibora yoki so'z o'zining badiiy

ma'nosini o'zida mujassamlashtiradi. Xayriddin Sulton so'zlarni, iboralarni va tasvirlarni ishlatishda yuqori darajadagi mahoratga ega. So'zlarni o'zgacha tarzda joylashtirish, ularning semantik ahamiyatini kengaytirish orqali murakkab his-tuyg'ularni oddiy va samarali tarzda ifodalashga muvaffaq bo'ladi.

Xayriddin Sultonning hikoyachiligi juda murakkab va o'zgacha badiiy uslubga ega. U o'zining asarlarida insoniyatning ruhiy va ma'naviy qiyinchiliklarini, hayotning o'ziga xosligini, tabiat va inson o'rtasidagi bog'lanishni chuqur tasvirlaydi. Yozuvchi o'z qahramonlari orqali o'quvchiga yangi dunyoqarash va hayotga bo'lgan yondashuvni taqdim etadi. Xayriddin Sultonning hikoyalaridagi psixologik chuqurlik, falsafiy izlanishlar va tabiiy tasvirlar ularni nafaqat adabiyotda, balki inson ruhiyatini o'rganish nuqtai nazaridan ham qimmatli asarlarga aylantiradi.

Ko'rinadiki, Xayriddin Sulton hikoyalarida borliqdagi voqealarni tasvirlashdan ko'ra o'sha voqealarning obrazlar ruhiy olamidagi izlarini ko'rsatishga birlamchi e'tibor qaratiladi. Shuningdek, hikoyalardagi obrazlar tabiatini ko'rsatishda qahramonlarning xatti-harakatlari ularning xarakterlariga muvofiq bo'lishiga alohida e'tibor beriladi. Adib hikoyalaridagi obrazlarning har biri betakror biri boshqasiga mutlaqo o'xshamaydigan odamlar ekani bilan o'quvchilar e'tiborini tortadi.

ADABIYOTLAR

- Golsuorsi, Jon (2004), *Olti adibning qiyofasiga chizgilar (Jahon adiblari adabiyot haqida)*, Toshkent: Sharq.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyev, M. (2010), *Adabiyotshunoslik lug'ati*, Toshkent: "Akademnashr".
- Sulton, X. (2020), *Odamlardan tinglab hikoya. Hikoyalar*, Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti.
- Sulton, X. (2022), *Navoiy – 30. Janri yo'q kitob*. Toshkent: "Mashhur-press" nashriyoti.
- Sulton, X. (2023), *Ishonch telefoni. Qissa va badialar*. Toshkent: "Ziyo nashr" nashriyoti.
- Sultonov, I., Qo'shjonov, M. va boshqalar (red.) (1979), *Adabiyot nazariyasi, II-tom (Adabiy-tarixiy jarayon)*, Toshkent: "Fan" nashriyoti.
- Sultonov, X. (1983), *Bir oqshom ertagi. Hikoyalar, tarixiy etyudlar, qissa*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti.